

## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ZAMONAVIY JINOYATLAR VA ULARNING JAZO TIZIMLARI**

**Abdumo'minov Ruslan Rustamjon o'g'li**

Huquqshunoslik fakulteti, Yurisprudensiya yo'nalishi,  
2-kurs 24.74-guruh talabasi Farg'ona, O'zbekiston

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda avj olayotgan zamonaviy jinoyat turlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari va jamiyatga xavflilik darajasi tahlil qilingan. Shuningdek, milliy jinoiy jazo tizimining ushbu huquqbuzarliklarga qarshi kurashishdagi samaradorligi baholanib, amaldagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-nazariy xulosalar va amaliy takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy jinoyatlar, jazo tizimi, jinoyat huquqi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, jinoiy javobgarlik, huquqbuzarliklar profilaktikasi, sanksiyalar.

## **СОВРЕМЕННЫЕ ПРЕСТУПЛЕНИЯ И НАКАЗАНИЯ ЗА НИХ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН**

**Абдумоминов Руслан Рустамджон оглу**

Юридический факультет, юриспруденция,  
студент 2 курса, группа 24.74 Фергана, Узбекистан

**Аннотация.** В данной статье анализируются современные виды преступлений, набирающие рост в Республике Узбекистан, их специфические особенности и степень общественной опасности. Также оценивается эффективность национальной системы уголовных наказаний в борьбе с этими правонарушениями, выдвигаются научно-теоретические выводы и практические предложения по совершенствованию действующего законодательства.

**Ключевые слова:** современные преступления, система наказаний, уголовное право, Уголовный кодекс Республики Узбекистан, уголовная ответственность, профилактика правонарушений, санкции.

## **MODERN CRIMES AND THEIR PENALTIES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**Abdumominov Ruslan Rustamjon oglu**

Faculty of Law, Jurisprudence,

**Abstract.** This article analyzes the modern types of crimes that are increasing in the Republic of Uzbekistan today, their specific features, and their level of public danger. Furthermore, the effectiveness of the national criminal punishment system in combating these offenses is evaluated, and scientific-theoretical conclusions and practical proposals for improving the current legislation are put forward.

**Keywords:** modern crimes, punishment system, criminal law, Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, criminal liability, crime prevention, sanctions.

### **Kirish**

Jahon hamjamiyatida kechayotgan globallashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining mislsiz rivojlanishi jamiyat hayotini yengillashtirish bilan bir qatorda, huquqbuzarliklar va jinoyatchilikning yangi, murakkab va intellektual turlari paydo bo'lishiga zamin yaratdi [1]. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy va raqamli munosabatlarning jadal rivojlanishi an'anaviy jinoyatlar bilan bir qatorda kiberjinoyatchilik, raqamli moliyaviy firibgarlik, o'zlashtirishning yashirin sxemalari va yuqori texnologiyalar yordamida sodir etiladigan boshqa zamonaviy jinoyatlarning o'sish xavfini keltirib chiqarmoqda [2].

Bunday sharoitda jinoyat qonunchiligini zamon talablariga moslashtirish, jinoiy-huquqiy normalarni yangilash hamda jazo tizimining profilaktik va axloq tuzatish funksiyalarini kuchaytirish davlat huquqiy islohotlarining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Zamonaviy jinoyatlarning yashirin (latent) xususiyatga egaligi hamda ularni sodir etish usullarining tez o'zgaruvchanligi sababli, amaldagi jazo sanksiyalarining adolatlilik va jazoning muqarrarligi prinsiplarini ta'minlash qobiliyatini qayta ko'rib chiqish talab etiladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — O'zbekiston Respublikasida sodir etilayotgan zamonaviy jinoyatlarning jinoiy-huquqiy xususiyatlarini tahlil qilish hamda ushbu turdagi qilmishlar uchun belgilangan jazo tizimining samaradorligini o'rganish asosida amaldagi Jinoyat qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan xulosa va takliflar ishlab chiqishdan iborat [3].

Tadqiqot jarayonida mantiqiy, qiyosiy-huquqiy, statistik tahlil hamda tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va xalqaro tashkilotlarning statistik ma'lumotlari, shuningdek, amaldagi qonun hujjatlari va ularni qo'llash amaliyoti kompleks tahlil qilindi.

### **Asosiy qism**

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi an'anaviy jinoyatlarning kiber makonga ko'chishiga sabab bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2024-yilgi statistik ma'lumotlariga ko'ra, kiberjinoyatlar umumiy

jinoyatchilikning 6.2 foizini tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan 10 barobar ko'pdir [4]. Birgina 2024-yilning o'zida ".uz" domenidagi veb-saytlarga nisbatan 8.2 milliondan ortiq kiberhujumlar qayd etilgan. O'zbekistonda kiberjinoyatlarning bunday o'sishi mamlakat bo'ylab internetdan foydalanishning kengayishi bilan bevosita bog'liqdir.

Zamonaviy jinoyatlarning eng keng tarqalgan turlaridan biri bu — moliyaviy firibgarlik va fashing (phishing) hisoblanadi. O'zbekistonda fashing hujumlari asosan bank kartalari ma'lumotlarini, onlayn to'lov tizimlari (masalan, Payme, Click, Uzcard) hamda shaxsiy identifikatsiya ma'lumotlarini o'g'irlashga qaratilmoqda. Jinoyatning xavfli jihati shundaki, jinoyatchilar ko'pincha o'zlarini bank xavfsizlik xizmati xodimlari sifatida tanishtirib, fuqarolarning shaxsiy bank ma'lumotlarini osonlikcha qo'lga kiritadilar [5]. Ushbu turdagi jinoyatlar oqibatida birgina 2024-yilda fuqarolarning taxminan 15 million AQSh dollari miqdoridagi mablag'lari o'zlashtirilgan.

Bundan tashqari, to'lov talab qiluvchi dasturlar (ransomware) orqali qilinadigan jinoyatlar ham jiddiy iqtisodiy xavf tug'dirmoqda. Xususan, 2023-yilda Toshkentdagi yirik mahalliy banklardan biriga qilingan ransomware hujumi oqibatida mijozlar ma'lumotlari shifrlanib, tashkilot taxminan 50,000 AQSh dollari miqdorida tovon puli to'lashga majbur bo'lgan.

Zamonaviy jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi ortib borayotgani sababli, davlat tomonidan qonunchilik va jazo mexanizmlari qat'iylashtirilmoqda. Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish maqsadida 2025-yil 30-aprelda qabul qilingan Prezident Qarori (PQ-153) sohada burilish yasadi [6]. Ushbu hujjatga asosan, banklar, to'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotlari mijozlarning moliyaviy xavfsizligini kafolatlashga majbur etildi.

Shu bilan birga, jazo tizimining profilaktik funksiyasini oshirish maqsadida muhim o'zgarishlar yuz berdi. Endilikda o'z nomidagi bank kartasi, hisob raqami yoki SIM-kartasidan kiberjinoyatlar sodir etish maqsadida o'zga shaxslarga foydalanishga ruxsat bergan shaxslar uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik joriy etildi. Bu me'yor bevosita jinoyat vositachilariga nisbatan jazoning muqarrarligini ta'minlashga xizmat qiladi. Qolaversa, firibgarlikning oldini olish maqsadida Markaziy bank tomonidan "moliyaviy piramida" sxemalarini aniqlash va bloklash bo'yicha maxsus tizim joriy etilmoqda. Shuningdek, O'zbekistonda kompyuter hodisalariga tezkor javob berish (CERT.uz) kabi xizmatlarning huquqiy va texnik bazasi kengaytirilmoqda [7].

### **Muhokama va Natijalar**

O'zbekistonda kiberjinoyatlarning aksariyati nafaqat xorijiy guruhlar, balki mahalliy yoshlar, xususan o'smirlar tomonidan ham sodir etilayotgani jiddiy muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Masalan, 2022-yilning 2-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining rasmiy veb-saytiga (senat.uz) qilingan kiberhujum buning yaqqol isbotidir. Tahlillarga ko'ra, "MarshGolden" deb nomlangan xakerlar

guruhi tomonidan amalga oshirilgan ushbu hujum ortida 14 yoshdagi o'smirlar turganligi ma'lum bo'ldi [8]. O'smirlar tizimga zarar yetkazishdan ko'ra, davlat organlari saytlaridagi xavfsizlik va himoya tizimidagi ochiq qolgan kamchiliklarni va zaifliklarni ko'rsatib qo'yishni maqsad qilganliklarini ta'kidlashgan. Bu holat, o'z navbatida, milliy veb-dasturchilar tomonidan tizimlar yaratilayotganda axborot xavfsizligi protokollariga yetarlicha e'tibor qaratilmayotganini ko'rsatadi [9].

Kiberxavfsizlik muammosi faqatgina davlat organlarini emas, balki xususiy biznes va telekommunikatsiya sektorini ham chetlab o'tgani yo'q. Ijtimoiy tarmoqlarda va mutaxassislar doirasida raqamli xizmat ko'rsatuvchi yirik platformalar, xususan, "Humans" aloqa operatori va moliya tizimining xakerlar tomonidan buzib kirilgani (yoki xavfsizlik tizimida tuynuklar topilgani) bilan bog'liq holatlar texnik tahlil qilinmoqda. Mutaxassislar (xususan, kiberxavfsizlik blogerlari va pentesterlar) tizimlardagi zaifliklar foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari hamda moliyaviy resurslariga to'g'ridan-to'g'ri xavf solishini ko'rsatib o'tmoqdalar [10]. Bu kabi holatlar xususiy sektorda ham raqamli himoya devorlari talab darajasida emasligini isbotlaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, buning asosiy sababi — mamlakatda kiberxavfsizlik sohasida professional kadrlar tayyorlash tizimining haligacha to'laqonli shakllanmaganligidir. Bugungi kunda AT (axborot texnologiyalari) yo'nalishida tahsil olayotgan yoshlar asosan dasturlash va veb-dizaynga yo'naltirilmoqda, ammo kiberxavfsizlik, tizimlar himoyasi va "axloqiy xakerlik" (white-hat hacking) sohalari e'tibordan chetda qolmoqda. Oqibatda, iqtidori va qiziqishi yuqori bo'lgan yoshlar (yuqoridagi 14 yoshli o'smirlar kabi) o'z salohiyatini noqonuniy yo'llar orqali namoyon qilishga o'tmoqda.

Ushbu zamonaviy jinoyatlarga qarshi kurashish uchun faqatgina jinoiy jazolarni og'irlashtirish yetarli emas. Eng ustuvor chora sifatida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish kerak. Oliy ta'lim muassasalari va maktablarda kiberxavfsizlik bo'yicha maxsus o'quv dasturlarini joriy etish, kuchli AT infratuzilmasiga ega bo'lgan kiberpoligonlar yaratish hamda iqtidorli "xaker" yoshlarni jazolash o'rniga, ularning qobiliyatini davlat xavfsizligini ta'minlash va tizimlar tahliliga (pentesting) yo'naltirish mexanizmlarini ishlab chiqish hayotiy zaruratdir.

### **Xulosa**

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida zamonaviy jinoyatlarning, xususan, kiberjinoyatchilikning o'sishi huquqiy va texnik mexanizmlarni uyg'unlashtirishni (sinergiya) talab etmoqda. Kiberxavfsizlik va yurisprudensiya sohaslarini o'zaro birlashtirmasdan turib, raqamli makondagi huquqbuzarliklarga qarshi adolatli va samarali kurashish imkonsizdir. Shu munosabat bilan, amaldagi jinoyat qonunchiligi va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish yuzasidan bir qator ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Birinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining kompyuter axboroti sohasidagi jinoyatlarga oid bobiga davlat yoki xususiy tarmoqlardagi zaifliklarni aniqlash maqsadida tizimlarni g'arazli maqsadsiz sinovdan o'tkazish (pentesting) faoliyatini huquqiy tartibga soluvchi norma kiritish lozim. Bu orqali 14-15 yoshli iqtidorli o'smirlarni va havaskor dasturchilarni jinoiy javobgarlikka tortish emas, balki ularning salohiyatidan davlat xavfsizligini mustahkamlash yo'lida qonuniy foydalanish kafolatlanadi. Bundan tashqari, Jinoyat kodeksining firibgarlik sanksiyalariga qo'shimcha ravishda, axborot xavfsizligi talablariga beparvoligi oqibatida mijozlar mablag'lari yoki shaxsiy ma'lumotlari talon-toroj qilinishiga yo'l qo'ygan yuridik shaxslar, xususan, banklar va telekommunikatsiya kompaniyalari vakillarining jinoiy va moddiy javobgarligini qat'iylashtirish zarur.

Shuningdek, kadrlarni tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, respublikadagi yuridik oliy ta'lim muassasalarida an'anaviy huquq normalari bilan bir qatorda "Kiberhuquq" (Cyber Law) va "Raqamli kriminalistika" (Digital Forensics) maxsus fanlarini o'quv dasturiga kiritish hamda axborot texnologiyalari bilimlariga ega bo'lgan yangi avlod yurist-tergovchilarini tayyorlashni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, kiberxavfsizlik choralari huquqiy himoya bilan mustahkamlansagina kutilgan natijani beradi va ushbu yechimlarning amaliyotga joriy etilishi mamlakatning raqamli infratuzilmasini himoya qilish bilan birga, yoshlarning intellektual salohiyatidan qonuniy maqsadlarda foydalanishni to'liq ta'minlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

[1] O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.01.2024-y., 03/24/891/0001-son ([www.lex.uz](http://www.lex.uz)).

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-apreldagi "Kiberxavfsizlik tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-153-son Qarori.

[3] Rustamboyev M.H. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi. Umumiy qism: Darslik. – Toshkent: «Yuridik adabiyotlar publish», 2021. – 18-b.

[4] Fozilov F. Kiberfazodagi huquqbuzarliklar profilaktikasi muammolari. – Toshkent: TDYUU nashriyoti, 2023. – B. 84.

[5] Fozilov F., Saidov A. Zamonaviy jinoyatchilikning kriminologik xususiyatlari va uning oldini olish muammolari // Huquqiy tadqiqotlar jurnali. – Toshkent, 2022. – № 5. – B. 42-45.

[6] Qobilov Sh.A. Cybercrimes committed through phishing and ransomware attacks in Uzbekistan: analysis and protective measures // World Bulletin of Management and Law. – 2025. – Vol. 46. – P. 12-15.

[7] Global Organized Crime Index: Uzbekistan Profile 2025. – Geneva: Global Initiative Against Transnational Organized Crime, 2025. – P. 3-4.

[8] O'zbekiston Respublikasi axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi huzuridagi "Kompyuter hodisalariga chora ko'rish markazi" (CERT.uz) rasmiy veb-sayti.

[9] Senat saytini buzib kirganlar 14 yoshdagi o'smirlar ekani ma'lum bo'ldi // Kun.uz axborot nashri, 2022-yil 5-noyabr. Elektron manba: <https://kun.uz/05161785>

[10] "Humans buzib kirildimi?" // Saud Cyber kiberxavfsizlik kanali texnik tahlili, YouTube videoxostingi. Elektron manba: [https://www.youtube.com/watch?v=Cgyfk7BKT\\_E](https://www.youtube.com/watch?v=Cgyfk7BKT_E)